
Mahallada tadbirkorlik: Farg'ona shahridagi Surxtepa MFYda oilaviy poyabzal ishlab chiqarish korxonasi qisqa muddatda 150 ta ish o'rnini yaratildi. Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, Farg'ona shahridagi Surxtepa MFYda "Xayrixon Kamol orzu" oilaviy poyabzal i

Kamoliddin Zokirov rahbarligidagi ushbu oilaviy korxonada 2022 yil boshida 20 nafar ishchi bo'lgan. O'tgan yil yakuniga qadar mahalladagi hokim yordamchisi bilan hamkorlikda 50 nafar ishchi olindi.

2022 yil noyabrda viloyat hokimining mazkur korxonaga tashrifidan so'ng tadbirkor o'z xonadonida ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish uchun qurilish ishlarini olib bordi. Jami 2 mlrd. 300 mln. so'mlik qurilish va jihozlash ishlari amalga oshirilib, hozirda ishlovchilar soni 150 nafarga yetdi. Korxonada 15 turdagi ayollar poyabzallari ishlab chiqarilmoqda.

Tadbirda bunday korxonalarining barpo etilishi Davlatimiz rahbarining bugungi kunda mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish va yangi ish joylarni tashkil etish borasida tadbir etayotgan siyosatining amaldagi ijrosi ekani ta'kidlandi.

2023-11-21 14:24:47